

Ochiq liniyalı onlayn mikroqarz berish haqida ommaviy oferta shartnomasi	Договор публичной оферты на предоставление онлайн открытой линии микрозайма
Kreditning to'liq qiymati: <i>elektron ma'qullash varaqasiga asosan</i> 1. Umumiy shartlar 1.1. Mazkur shartnomaga ko'ra Bank karta (Bank tomonidan emissiya qilingan) egalari bo'lgan jismoniy shaxslarga, milliy valyutada bankning mobil ilovalari orqali mikroqarz ajratish yuzasidan Fuqarolik kodeksining 367-370-moddalariga asosan ishlab chiqilgan ommaviy ofertani taklif etadi. 1.2. Mazkur oferta shartnomasida aks etgan shartlar fuqarolar (keyingi o'rinlarda – Qarz oluvchi) tomonidan to'liq o'rganilishi shart. Mazkur ommaviy oferta shartlari Qarz oluvchi va Bank uchun Qarz oluvchi tomonidan aktseptlanganidan keyin majburiy hisoblanadi. 1.3. Ushbu oferta Qarz oluvchi u bilan tanishib chiqqanligini tasdiqlovchi belgini belgilab, raqamli identifikatsiyadan o'tishi bilan akseptlangan hisoblanadi. 2. Shartnoma predmeti 2.1. Bank ushbu ofertani aktseptlovchi Qarz oluvchiga shaxsiy ehtiyojlari uchun mazkur Oferta shartlariga muvofiq mikroqarz berish majburiyatini, Qarz oluvchi esa olingan mikroqarz mablag'larini belgilangan muddatda qaytarish va mikroqarzdin foydalanganligi uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi. 3. Axborot xavfsizligiga oid shartlar 3.1. Qarz oluvchi quyidagilarga majbur: 3.1.1. Bank tomonidan yuboriladigan xabarlar, jumladan mobil ilovadagi bildirishnomalar, SMS va PUSH-xabarlarni diqqat bilan o'rganib chiqish; 3.1.2. Bankdan firibgarlik belgilari aniqlanganligi to'g'risidagi xabarlarni olganidan keyin har qanday to'lov amaliyotlarini tasdiqlashda ehtiyotkor bo'lishi; 3.1.3. O'zining qurilmasi yo'qolganligi yoki uchinchi shaxslar tomonidan qurilmani boshqarishga nazorat o'rnatilganligini aniqlagan paytdan boshlab zudlik bilan biroq 1 (bir) kundan kechiktirmay Bankni xabardor qilish;	Полная стоимость кредита: <i>согласно странице электронного одобрения</i> 1. Общие условия. 1.1. В соответствии с настоящим договором, банк предлагает физическим лицам, являющимся владельцами банковских карт (эмитированных банком), микрозайм в национальной валюте через мобильные приложения банка, в соответствии с пунктами 367-370 Гражданского кодекса, разработанные на основе публичной оферты. 1.2. Условия, отраженные в настоящем соглашении-оферте, должны быть полностью изучены гражданами (в последующих местах – заемщиком). Условия данной публичной оферты являются обязательными для заемщика и банка после акцептирования заемщиком. 1.3. Данная публичная оферта считается выданной заемщиком только после выполнения всех необходимых действий для получения кредита с использованием реквизитов его банковской карты. 2. Предмет оферты 2.1. Банк обязуется предоставить микрокредит заемщику, акцептировавшему данную оферту, в соответствии с условиями настоящей оферты для личных нужд, а заемщик обязуется вернуть полученные микрозаймом средства в установленный срок и уплатить проценты за использование микрокредита. 3. Условия, связанные с информационной безопасностью 3.1. Заемщик обязан: 3.1.1. Внимательно изучать сообщения, направляемые Банком, включая уведомления в мобильном приложении, SMS- и PUSH-сообщения; 3.1.2. Проявлять осторожность при подтверждении любых платежных операций после получения от Банка уведомления о выявлении признаков мошенничества; 3.1.3. Незамедлительно, но не позднее 1 (одного) дня с момента обнаружения утраты своего устройства либо установления третьими лицами контроля над устройством, уведомить об этом Банк;

3.1.4. O'zining rozilgisiz amalga oshirilgan operatsiya faktini aniqlagan paytdan boshlab 1 (bir) kun ichida bu haqda Bankni xabardor qilish;

3.1.5. Bankka o'zining aloqa ma'lumotlarini taqdim etishi, ushbu ma'lumotlar Bankning foydalanuvchi bilan bog'lanishi uchun zarurligi, agar ushbu ma'lumotlar o'zgarsa, foydalanuvchi o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 3 (uch) kun ichida bu haqda Bankka xabar berish;

3.1.6. O'zining bank ilovalariga kirish va bank kartasidan foydalanish imkonini beruvchi ma'lumotlari (jumladan, pasport ma'lumotlari, login, parol, pinkod, bank kartasi ma'lumotlari, elektron raqamli imzo, telefon qurilmasi, mahfiy so'z, qabul qilingan SMS xabarlardagi ma'lumotlar va boshqalar)ni boshqa shaxslarga bermaslik, ularni har qanday ko'rinishda olish imkoniyatini yaratmaslik;

3.1.7. Bankning so'roviga ko'ra foydalanuvchi operatsiyani o'zi mustaqil ravishda amalga oshirganligi yoki uni foydalanuvchining topshirig'i yoxud ixtiyoriy roziligi bilan uchinchi shaxs bajarganligi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etishi shart. Shuningdek, foydalanuvchi firibgarlik holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ham taqdim etishi lozim.

3.2. Yuqorida belgilangan majburiyatlar bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi natijasida kelib chiqqan har qanday holatlar (jumladan, qo'lga kiritilgan ma'lumotlar natijasida **uchinchi shaxslar** tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar va boshqa harakatlar) va har qanday ko'rinishdagi zararlar uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

3.3. Bank tomonidan foydalanuvchi/mijozga firibgarlik belgilari aniqlanganligi to'g'risida oqilona muddatda ma'lumot beriladi.

4. Kredit ajratish tartibi

4.1. Mikroqarz milliy valyutada qayta tiklanadigan kredit liniyasi ochib Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idan uning ko'rsatmasiga asosan faqat Bank tomonidan emissiya qilingan Bank kartasiga naqdsiz shaklda pul o'tkazish yo'li bilan ajratiladi.

4.2. Mikroqarz shartnoma aktseptlangan vaqtning keyingi ish kunidan kechiktirmasdan ajratiladi. Mobil ilova va mobil ilovaning ishlashi bilan bog'liq bo'lgan ichki va tashqi ma'lumotlar bazasi hamda Bankning dasturiy ta'minotlarida kutilmagan texnik nosozliklar ro'y bergan holatlar bundan mustasno. Bunda, Bank ro'y bergan texnik nosozliklar bartaraf

3.1.4. В течение 1 (одного) дня с момента выявления факта совершения операции без своего согласия уведомить об этом Банк;

3.1.5. Предоставлять Банку свои контактные данные, необходимые для связи Банка с пользователем, а в случае изменения указанных данных уведомить Банк в течение 3 (трех) дней с даты их изменения;

3.1.6. Не передавать третьим лицам данные, обеспечивающие доступ к банковским приложениям и использование банковской карты (в том числе паспортные данные, логин, пароль, ПИН-код, реквизиты банковской карты, электронную цифровую подпись, телефонное устройство, секретное слово, сведения из полученных SMS-сообщений и иные данные), а также не создавать возможности для их получения в любой форме;

3.1.7. По запросу Банка предоставлять сведения о том, что операция была совершена пользователем самостоятельно либо третьим лицом по поручению или с добровольного согласия пользователя. Также пользователь обязан предоставить информацию о случаях мошенничества.

3.2. Банк не несет ответственности за любые обстоятельства (в том числе операции и иные действия, совершенные **третьими лицами** с использованием полученных данных) и за убытки любого вида, возникшие вследствие неисполнения либо ненадлежащего исполнения вышеуказанных обязательств.

3.3. Банк информирует пользователя/клиента о выявлении признаков мошенничества в разумный срок.

4. Условия кредитования

4.1. Микрозайм выделяется путем открытия возобновляемой кредитной линии в национальной валюте, перечисления денежных средств со счета заемщика на банковскую карту, выпущенную только банком, в безналичной форме, согласно его указанию.

4.2. Микрозайм выделяется не позднее следующего рабочего дня с момента акцептирования данного договора. За исключением случаев непредвиденных технических сбоев в программном обеспечении банка, а также внутренних и внешних баз данных,

etilgan bank ish kuni davomida nazarda tutilgan kredit liniyasini ochib berish majburiyatini oladi.

4.3. Kredit muddati: 24 oy.

4.4. Asosiy qarzni qaytarish miqdorlari: 12 oy imtiyozli davrdan so'ng, oyma-oy teng ulushlarda (differentsial to'lov usulida).

4.5. Kredit va unga hisoblangan foizlarni to'lash muddati: qarz oluvchi tanloviga asosan har oyning 20-sanasi gacha va kreditni oxirgi qaytarish sanasida.

4.6. Kredit ta'minoti: qarz oluvchi tomonidan kredit qaytarmaslik xavf xataridan sug'urta polisi.

5. Kreditni qaytarish va foizlarni to'lash tartibi

5.1. Kredit yillik foiz stavkasi ish haqqi loyihasi doirasida yillik 26,9 % foizda, doimiy daromadga ega jismoniy shaxslarga yillik 29,9 foizda o'rnatiladi.

5.2. Kreditdan foyladanganlik bo'yicha foizlar Bank tomonidan har kuni hisoblab boriladi. Bunda, oylik foiz to'lovi har oyning mavjud bo'lgan kunlar soni bo'yicha aniqlanadi. Kredit bo'yicha foiz hisoblanishi bank ish kuni yakunida mavjud bo'lgan asosiy qarz qoldi'i bo'yicha hisoblanadi.

5.3. Kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlar hamda boshqa to'lovlar Bank kassasiga naqd pul yoki bank mobil ilovasi yoxud boshqa to'lov vositalari orqali pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi. Qarz oluvchi tomonidan kredit bo'yicha to'lovlar belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi shart.

5.4. Agar kredit to'lovining sanasi bank ish kuni hisoblanmasa, to'lov keyingi bank ish kuniga ko'chiriladi.

5.5. Shartnoma bo'yicha har qanday to'lovlar quyidagi ketma ketliklarga muvofiq yo'naltiriladi:

- 1) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- 2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzдорlik;
- 3) neustoyka (jarima, penya);
- 4) kreditorning qarzдорlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

связанных с работой мобильного приложения. Банк обязан открыть предусмотренную кредитную линию, в течение рабочего дня банка, в котором были исправлены технические неполадки.

4.3. Срок использования микрозайма: 24 месяцев.

4.4. Размеры погашения основного долга: после 12-месячного льготного периода, равными частями ежемесячно (дифференциальные платежи).

4.5. Срок погашения кредита и начисленных по нему процентов: по выбору заемщика до 20-го числа каждого месяца и в дату окончательного погашения кредита.

4.6. Обеспечение кредита: страховой полис по страхованию риска невозврата кредита заемщиком

5. Порядок возврата микрозайма и оплата процентов

5.1. Годовая процентная ставка по кредиту в рамках проекта заработной платы устанавливается на уровне 26,9%, для физических лиц с постоянным доходом — на уровне 29,9% годовых.

5.2. Проценты по кредиту начисляются банком каждый день. При этом ежемесячная выплата процентов определяется количеством доступных дней в каждом месяце. Начисленные проценты по кредиту рассчитываются по остаткам основного долга, которые имеются в наличии на конец рабочего дня банка.

5.3. Основная сумма и проценты, начисленные по кредиту, а также другие платежи уплачиваются в кассу Банка наличными или банковским переводом или другими платежными средствами. Платежи по кредиту должны производиться заемщиком своевременно.

5.4. Если дата оплаты микрозайма является не рабочим днем банка, то оплата переносится на следующий рабочий день Банка.

5.5. Все выплаты по настоящему договору будут осуществляться в следующих последовательностях:

1. Просроченная задолженность по основному долгу и просроченные платежи по процентам, пропорционально;
2. Начисленные проценты за текущий период и задолженность по основному долгу за текущий период;
3. Неустойка (штраф, пени);

5.6. Qarz oluvchi ushbu ofertani akseptlash orqali Bank o'z talablarini qanoatlantirishi uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga asosan, Qarz oluvchining barcha banklarda ochilgan barcha hisobvarag'laridan (ya'ni, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari, bank kartasi hamda boshqa hisobvarag'larida) so'zsiz tartibda Qarz oluvchining rozilgisiz avtoto'lov tizimidan foydalangan holda hisobdan chiqarishga shartsiz roziligini bildiradi.

Bunda Bank ushbu mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda hisobvarag' (omonat) egasiga uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko'rsatgan holda (SMS) xabarnoma (ma'lumotnoma) yuboradi.

6. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

6.1. Bank majburiyatlari:

6.1.1. Qarz oluvchiga ssuda va boshqa lozim bo'lgan hisobvaraqlar ochish;

6.1.2. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan shartlarga muvofiq mikroqarz taqdim etish;

6.2. Bank huquqlari:

6.2.1. Qarz oluvchining bankdagi maxsus bank karta hisobvarag'iga kelib tushayotgan pul mablag'larini uning vujudga kelgan qarzдорligini qoplash uchun yo'naltirish;

6.2.2. Qarz oluvchini kredit va unga hisoblangan foizlar bo'yicha vujudga kelgan muddati o'tgan qarzдорlik to'g'risida mobil ilova va sms xabarnoma orqali shuningdek, yozma yoki og'zaki tartibda xabardor etish;

6.2.3. Quyidagi holatlarda Qarz oluvchidan kredit va unga hisoblangan foizlarni va boshqa to'lovlarni muddatidan oldin qaytarish, shartnomani bekor qilish hamda kredit bo'yicha barcha qarzдорliklarni bartaraf etish haqida talab qo'yishi mumkin:

kredit bo'yicha hisoblangan asosiy qarz va (yoki) foizlarning to'lov muddati buzilishi;

qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashishi;

qarz oluvchining hisobvarag'idagi pul mablag'lariga taqiq qo'yilishi;

qarz oluvchining kreditni qoplash uchun istiqboli mavjud bo'lmasa;

qarz oluvchi tomonidan shartnoma shartlarini o'z muddatida bajarilishiga tahdid soluvchi asos va

4. Прочие расходы кредитора, связанные с урегулированием задолженности.

5.6. Путем акцептирования данной оферты, Заемщик соглашается на безусловное списание средств с любых его счетов в банках (то есть с зарплатных и приравненных к ним выплат, банковских карт и других счетов) с использованием автоматической платежной системы без его согласия, в объеме, необходимом для удовлетворения требований Банка в соответствии с статьей 783 Гражданского кодекса.

В этом случае Банк направит владельцу счета (вклада) уведомление (СМС) о размере средств снятые с его счета не позднее следующего рабочего дня со дня списания данных средств, указав причину и в чью пользу были сняты средства.

6. Права и обязательства сторон

6.1. Банк обязуется:

6.1.1. Открытие ссуды и других необходимых счетов Заёмщику;

6.1.2. Предоставление микрозайма для использования в соответствии с условиями указанными в настоящем договоре;

6.2. Права банка:

6.2.1. Направление поступающих денежных средств, на специальный счет карты заёмщика в банке, для погашения задолженности;

6.2.2. Информировать заемщика в письменном или устном порядке, а также посредством мобильного приложения и SMS-уведомления о просроченной задолженности, возникающей по кредиту, и начисленных по нему процентах

6.2.3. В следующих случаях Должнику может быть предъявлено требование о досрочном погашении микрозайма и начисленных процентов и других платежей, а также расторжении договора и погашении всех задолженностей по микрозайму:

нарушение сроков погашения основного долга и (или) процентов, начисленных по микрозайму;

ухудшение финансового состояния должника;

при наличии запрета на денежные средства ()

на счете должника;

если у должника нет перспектив покрыть микрозайм;

основания и иные обстоятельства, угрожающие своевременному исполнению должником условий договора, в случае невыполнения им своих обязательств по договору;

boshqa hodisalar sodir bo'lib, shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda;

6.2.4. Qarz oluvchining maxsus bank karta hisobvarag'i va boshqa hisobraqamlari bo'yicha amaliyotlarni nazorat va monitoringini mustaqil tarzda amalga oshirish (shuningdek, hisobidagi kirim-chiqim pul aylanmalari holati);

6.2.5. Kreditga ariza berish davomida qarz oluvchining mobil ilovadagi shaxsiy sahifasiga bog'langan barcha bank kartalar va keyinchalik bankka ma'lum bo'lgan Bank xizmatlari ofislarida va boshqa tijorat banklarida ochilgan qarz oluvchining shaxsiy bank kartalarini avto to'lov xizmatiga bog'lash va muddati o'tgan qarzдорlik vujudga kelgan taqdirda mazkur bank kartalardan qarzдорlikni aktseptsiz undirish;

6.2.6. Kredit olish jarayonida texnik nosozliklar sababli qarz oluvchi bank kartasiga ortiqcha pul mablag'lari tushirib berilishi oqibatida yuzaga kelgan qarzдорlikni undirish bo'yicha zaruriy choralarni ko'rish;

6.2.7. Kredit bo'yicha barcha qarzдорliklar qaytarilishida o'zining huquq va manfaati himoyasi uchun yetarli va zarur bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu ofertadagi qaytarishning barcha choralarni ko'rish. Qarzдорlikni undirish bilan bog'liq barcha xarajatlar Qarz oluvchi tomonidan qoplanadi;

6.2.8. Kreditning asosiy qarzi va unga hisoblangan foiz to'lovlari o'z muddatida va belgilangan miqdorda to'lanmagan taqdirda, undiruvni kreditning ta'minotiga yoki Qarz oluvchining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari, bank kartasi hamda boshqa hisobvarag'larida turgan pul mablag'lari va boshqa mol-mulklariga qaratish orqali undirish.

6.3. Qarz oluvchining majburiyatlari:

6.3.1. Kredit bo'yicha asosiy qarz va foizlarni belgilangan muddatda va miqdorda to'lash, ish haqi yoki unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish, zarur hollarda, naqd pul mablag'larini Bank kassasiga topshirish yo'li bilan to'lovlarni amalga oshirish;

6.3.2. Kredit va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida va to'liq qoplanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha holatlar haqida bankni o'z vaqtida xabardor etish;

6.3.3. Bank dasturiy ta'minotlarida kutilmagan texnik nosozliklar sababli qarz oluvchining bank kartasiga noto'g'ri kelib tushgan pul mablag'lari yuzasidan Bankni xar qanday aloqa vositalari orqali

6.2.4. Самостоятельно осуществлять контроль и мониторинг операций по специальному карточному счету и другим счетам заемщика (а также состояние оборота зачисленного счета);

6.2.5. Во время подачи заявки на кредит все карты, привязанные к личной странице заемщика в мобильном приложении, а затем открытые в отделениях банка и других коммерческих банках, подключают личные карты заемщика к сервису автоплатежей, а в случае просроченной задолженности взыскивают долги с этих карт без акцепта;

6.2.6. Принять необходимые меры по взысканию задолженности, возникшей в результате перечисления лишних денежных средств на карту заемщика из-за технических сбоев в кредитном процессе;

6.2.7. При погашении всех долгов по кредиту для защиты своих прав и интересов принять все необходимые меры согласно действующему законодательству Республики Узбекистан и соглашению данной оферты. Все расходы, связанные с погашением кредита, покрываются заемщиком;

6.2.8. В случае, если основной долг по кредиту и начисленные проценты не будут оплачены в срок и в установленном размере, взыскание производится путем обращения на обеспечение кредита или на заработную плату и приравненных к ним платежей, а также денежных средств, находящихся на банковской пластиковой карте и других расчетных счетах Заемщика, и другие имущества, принадлежащие заёмщику.

6.3. Заёмщик обязуется:

6.3.1. Осуществление погашения основного долга и процентов по микрозайму в установленном в размере и в срок, а также перечисление заработной платы или приравненных к ней платежей, в отдельных случаях в виде наличных средств в кассу банка.

6.3.2. Своевременно информировать банк обо всех случаях, которые могут повлиять на своевременное и полное покрытие микрозайма и начисленных процентов.

6.3.3. При неправильном (ошибочном) зачислении денежных средств на пластиковую карту заёмщика в связи с непредвиденными техническими сбоями в банковском программном

xabardor qilish va mazkur mablag'lardan foydalanmaslik, qaytarish masalasi bo'yicha barcha choralarni ko'rish, shuningdek qarzdorlik bo'yicha hisoblanishi lozim bo'lgan foizlar noto'g'ri ekanligi aniqlanganda bankni zudlik bilan xabardor etish;

6.3.4. Yashash manzili va ish joyi o'zgarganligi haqida, Bankni besh ish kunidan kechiktirmagan holda yozma tartibda ogohlantirish;

6.3.5. Qarz oluvchi bilan Bank o'rtasida aloqa vositasi bo'lgan, ya'ni qarz oluvchi bilan bog'lanish imkonini beruvchi ma'lumotlar (telefon raqam va boshqalar)ning o'zgarganligi haqida, Bankni uch kunlik muddatda yozma tartibda ogohlantirish;

6.3.6. Qarz oluvchi Bankka noto'g'ri ma'lumotlar berilishi sababli kelib chiqadigan holatlar uchun javobgar;

6.3.7. Kredit bo'yicha qarzdorlik doirasida o'z majburiyatlari yuzasidan Bank oldida barcha mulki bilan javob berish;

6.3.8. Qarz oluvchi quyidagilarni tasdiqlaydi va kafolatlaydi:

a) qarzdorlik muammoga aylanganda va o'z muddatida to'lanmaganda, uning so'ndirilishi yuzasidan amaliy yordam so'rab, Qarz oluvchining ish joyi, yashash joyidagi MFY va yaqin qarindoshlariga Bank tomonidan yozma murojaat qilinishiga o'z roziligini beradi hamda bu holat bank sirini oshkor qilish deb hisoblanmaydi;

b) kredit to'lovi muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida SMS xabar jo'natilishi va telefon orqali qo'ng'iroqlar amalga oshirilishiga, xat yuborilishigava bank xodimlarini uning yashash xonadoniga borishiga qarshi emas;

v) qarzdorlik vujudga kelgan taqdirda qarz oluvchining shaxsiy va kredit qarzdorligi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni kredit ta'minoti sifatida kredit qaytmaslik xavf xataridan sug'urta polisini taqdim etgan sug'urta kompaniyasi taqdim etilishiga o'z roziligini beradi va bu holat bank sirini oshkor qilish deb hisoblanmaydi;

g) Kredit tarixini shakllantirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni Kredit axborotining davlat reyestri va kredit byurosiga taqdim etilishiga/olinishiga o'z roziligini beradi, bu holat bank sirini oshkor qilish deb hisoblanmaydi.

6.3.9. Bankka taqdim qilgan bank kartaning amal qilish muddati tugaganligi/yo'qotilganligi yoki boshqa sabablarga ko'ra yangi bank karta olinganida, bu haqida qisqa muddatlarda Bankni xabardor qilish.

обеспечении, необходимо любыми средствами связи сообщить банку, не использовать ошибочно поступившие денежные средства, принять все меры по скорейшему возвращению этих средств, а также немедленно сообщить банку, если проценты, начисляемые по займу, неверны;

6.3.4. Письменное уведомление об изменении адреса проживания и места работы не позднее пяти рабочих дней банка;

6.3.5. Уведомление банка в письменной форме в трехдневный срок об изменении данных (номер телефона и др.), которые являются средством связи между должником и банком, то есть позволяют связываться с должником.

6.3.6. Заёмщик несет ответственность за случаи, вытекающие из-за неверной информации предоставленной Банку.

6.3.7. В рамках задолженности по кредиту отвечать перед Банком всем имуществом, исходя из своих обязательств;

6.3.8. Заёмщик подтверждает и гарантирует следующее:

a) В случае, когда долг не будет выплачиваться вовремя, Заёмщик дает своё согласие на то, что Банк может обратиться за практической помощью в письменной форме по месту работы, по месту жительства и близким родственникам в погашении кредитной задолженности заёмщика, и это не считается раскрытием банковской тайны;

б) не возражает против отправки SMS-уведомлений и телефонных звонков о возникновении просроченной задолженности;

в) в случае, выявления задолженности, заемщик дает свое согласие на предоставление страховой компании, предоставившей страховой полис от риска невозврата кредита, информации о личном и кредитном заимствовании в качестве кредитной гарантии, и эта ситуация не рассматривается как раскрытие банковской тайны;

г) Заемщик дает согласие на предоставление/получение информации, необходимой для формирования кредитной истории, в Государственный реестр кредитной информации и бюро кредитных историй, что не считается разглашением банковской тайны.

6.3.9. Уведомлять Банк в кратчайшие сроки о том, что срок действия банковской карты, предоставленной Банку, истек, она утрачена либо по иным причинам получена новая банковская карта.

6.4. Qarz oluvchining huquqlari:

6.4.1. Kredit mablag'lari ajratilguniga qadar, kredit olishdan bepul asosda voz kechish;

6.4.2. Kreditni muddatidan oldin qaytarish;

6.4.3. Kredit qarzдорliklari bo'yicha Bankdan ma'lumotlar olish;

6.4.4. Kreditlash va hisob-kitoblar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari va Bankning ichki me'yoriy hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida Bankdan ma'lumot olish.

7. Tomonlarning javobgarligi

7.1. Bank quyidagi hollarda qarz oluvchining nomidan Bankning mobil ilovasi orqali olingan pul mablag'lari uchun javobgar bo'lmaydi, jumladan:

- qarz oluvchining shaxsan o'zi qarz oluvchining yaqinlari va qarindoshlari hamda uchinchi shaxslarga mobil ilovada qarz oluvchining shaxsiy sahifasiga kirish va undan foydalanish imkoniyatini bergan taqdirda;

- qarz oluvchining PIN kodlari va parollari, mobil ilova va qarz oluvchining bank kartalari bo'yicha kelgan sms xabarnomadagi kodlarning qarz oluvchining aybi bilan boshqa shaxslarga ma'lum bo'lib qolishi natijasida;

- Bankka Qarz oluvchi nomidan noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etilishi natijasida.

- Qarz oluvchining ma'lumotlari yoki uning akkaunti orqali uchinchi shaxslar tomonidan mikroqarz olinishi natijasida Qarz oluvchiga yetgan zarar uchun.

7.2. Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda, Qarz oluvchi Bankka butun kechiktirilgan davr uchun shartnomada belgilangan foiz stavkasining 1,5 baravar oshirilgan miqdorida yuqori foiz to'laydi.

7.3. Foizlarni belgilangan muddatda to'lamanligi va ular bo'yicha muddati o'tgan summalar vujudga kelgani uchun Qarzдор Bankka kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4%i miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 %idan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

7.4. Bank tomonidan kredit mablag'ini ajratish kechiktirilganida, Bank Qarz oluvchiga kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizdan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

6.4. Права заёмщика:

6.4.1. Отказаться от получения кредита на бесплатной основе до получения денежных средств;

6.4.2. Досрочно погасить задолженность по выданному кредиту;

6.4.3. Получать информацию от Банка по кредитной задолженности.

6.4.4. Получать информацию от Банка об изменениях в нормативно-правовых актах Республики Узбекистан и внутренних нормативных документах Банка по вопросам кредитования и о расчетах.

7. Ответственность сторон

7.1. Банк не несет ответственности за денежные средства, полученные от Заемщика через мобильное приложение банка, в том числе:

- в случае, если заемщик лично предоставляет родственникам и близким, а также третьим лицам возможность доступа и использования личной страницы заемщика в мобильном приложении

- в результате того, что PIN коды и пароли заемщика, мобильного приложения и коды во входящем SMS-уведомлении по картам заемщика становятся известны другим лицам по вине заемщика;

- в результате предоставления банку неверной информации от имени заемщика.

- за ущерб, причинённый Заемщику в результате получения микрозайма третьими лицами через данные Заемщика или его аккаунт

7.2. В случае просрочки погашения основного долга Заемщик уплачивает Банку повышенную процентную ставку за весь период просрочки в размере, превышающем процентную ставку, указанную в договоре, в 1,5 раза.

7.3. В случае неуплаты процентов в установленный срок и возникновения просроченной суммы по ним, Заемщик обязан уплатить Банку пени в размере 0,4% за каждый день просроченного платежа, но не более 50% от суммы просроченного платежа

7.4. В случае задержки перечисления кредитных средств Банком, Банк обязуется выплатить Заемщику пени в размере 0,4% от суммы просроченного платежа за каждый день задержки, но не более 50% от суммы просроченного платежа.

7.5. Mobil ilovadan foydalanishda frod holatlariga olib keladigan vaziyatlarga yo'l qo'ymaslik: login, parol va maxfiy so'zni, hamda tizimga kirish uchun SMS xabarnoma orqali yuborilgan tasdiqlov kodlarini uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik/bermaslik.

7.6. Bank ushbu majburiyatga Qarz oluvchi tomonidan rioya etilmaganligi oqibatida kelib chiqqan har qanday zararlar uchun javobgar bo'lmaydi.

7.7. Yetkazilgan zararni Qarz oluvchiga bank tomonidan to'lab berish lozimligi to'g'risidagi qaror vakolatli organ tomonidan qabul qilingan taqdirda, bank ushbu zarar haqiqatda Qarz oluvchining o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlar natijasida yetkazilganligini aniqlash huquqiga ega.

Agar zarar Qarz oluvchining o'ziga bog'liq bo'lgan holatlar va/yoki frodga aldanganlik oqibatida, ya'ni mobil ilovadan foydalanish huquqini, login, parol va maxfiy so'z, tizimga kirish uchun SMS xabarnoma orqali yuborilgan tasdiqlov kodlarini uchinchi shaxslarga oshkor qilish/berish natijasida yuzaga kelganligi tasdiqlansa, bank to'langan zarar summasini Qarz oluvchidan qaytarib olish haqidagi da'vo bilan sudga murojaat qilishga haqli.

8. Nizolarni hal etish tartibi

8.1. Tomonlar ushbu oferta yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan kelishmovchilik va nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qiladilar. Agarda ko'rsatib o'tilgan kelishmovchilik va nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etilmasa, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan Bank xizmatlari ofisi/markazi joylashgan joydagi sudda hal etiladi.

Nizolar vujudga kelgan taqdirda, Bank yozuvlari, ko'chirmalar har ikki tomon uchun mazkur oferta bo'yicha majburiyatlar isbotining dalili bo'lib hisoblanadi.

9. Ofertaning amal qilish muddati

9.1. Mazkur oferta aktseptlangandan so'ng kuchga kiradi, Qarz oluvchi tomonidan ushbu oferta bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilguniga qadar amalda bo'ladi.

9.2. Mazkur shartnoma muddatidan oldin, shartnomada ko'zda tutilgan hollarga asosan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin.

7.5. Недопускать ситуации, приводящие к мошенническим действиям при использовании мобильного приложения: не раскрывать и не передавать третьим лицам логин, пароль и кодовое слово, а также коды подтверждения, направляемые посредством SMS-уведомлений для входа в систему.

7.6. Банк не несет ответственности за любые убытки, возникшие вследствие несоблюдения Заемщиком указанного обязательства.

7.7. В случае если уполномоченным органом будет принято решение о необходимости возмещения Банком причиненного ущерба Заемщику, Банк вправе удостовериться, что указанный ущерб фактически был причинен вследствие обстоятельств, не зависящих от Заемщика.

Если будет установлено, что ущерб возник вследствие обстоятельств, зависящих от Заемщика, и/или в результате введения его в заблуждение мошенническими действиями, а именно вследствие раскрытия либо передачи третьим лицам права пользования мобильным приложением, логина, пароля и кодового слова, а также кодов подтверждения, направляемых посредством SMS-уведомлений для входа в систему, Банк вправе обратиться в суд с иском о взыскании с Заемщика суммы выплаченного ущерба.

8. Порядок разрешения споров

8.1. Стороны будут стремиться разрешить все споры и разногласия, которые могут возникнуть по настоящему договору, путём переговоров. В случае невозможности разрешения споров путем переговоров, такие споры и разногласия подлежат разрешению в суде по местонахождению филиала в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан.

В случае возникновения споров, банковские записи, выписки являются доказательством обязательств по настоящему Договору для обеих сторон.

9. Срок действия договора

9.1. Настоящий Договор вступает в силу с момента акцепта и остается в силе до тех пор, пока Заемщик не выполнит полностью обязательства согласно договору;

9.2. Настоящий договор может быть расторгнут досрочно, в одностороннем порядке, исходя из случаев, предусмотренных договором.

9.3. Mazkur shartnoma tomonlardan birining tashabbusi bilan bekor bo'lganda, Qarz oluvchi Kredit bo'yicha barcha qarzдорliklarni muddatidan oldin Bankka to'lashi shart.

10. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha shartlar

10.1. Qarz oluvchi tomonidan bank xizmati va (yoki) mahsulotlaridan foydalangan holda gumonli va (yoki) shubhali operatsiyalar amalga oshirilganligi aniqlangan taqdirda, Bank bajarilgan operatsiyalarning qonuniyligi to'g'risida Qarz oluvchidan yozma tushuntirish va asoslantiruvchi hujjatlar taqdim etilmaguncha xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish va (yoki) rad etish huquqiga ega. (Gumonli va shubhali operatsiyalarga ta'rif amaldagi qonunchilik hamda Nizom №2886ga muvofiq belgilanadi).

10.2. Bank quyidagi hollarda Qarz oluvchini oldindan xabardor qilmasdan operatsiyalarni amalga oshirishni to'xtatib turadi (bunda hisobvaraqqa pul mablag'larini kiritish operatsiyalari mustasno) va (yoki) pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkni bloklaydi:

- operatsiya ishtirokchilaridan biri terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa;
- operatsiya ishtirokchilaridan biri ro'yxatga kiritilgan shaxs nomidan yoki uning topshirig'iga asosan harakat qilayotgan bo'lsa;
- operatsiyani amalga oshirishda foydalanilayotgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk to'liq yoki qisman ro'yxatga kiritilgan shaxsga tegishli yoki uning nazorati ostida bo'lsa;
- operatsiya ishtirokchisi bo'lgan yuridik shaxs ro'yxatga kiritilgan shaxsning mulkida yoki nazorati ostida bo'lsa;
- pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk ro'yxatga kiritilgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita tegishli bo'lsa yoxud ularga aloqador manbalardan olingan bo'lsa.

10.3. Qarz oluvchi Bankning talabiga binoan o'zining identifikatsiya ma'lumotlarini, yakuniy benefisiar mulkdor (UBO) to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda operatsiyalarning iqtisodiy

9.3. При прекращении по инициативе одной из сторон настоящего Договора должник должен оплатить банку досрочно все долги по микрозайму.

10. Условия по противодействию легализации доходов, полученных от преступной деятельности, финансированию терроризма и финансированию распространения оружия массового уничтожения

10.1. В случае выявления совершения Заёмщиком подозрительных и (или) сомнительных операций с использованием банковских услуг и (или) продуктов, Банк вправе приостановить обслуживание и (или) отказать в его осуществлении до представления Заёмщиком письменного объяснения и подтверждающих документов о законности совершенных операций. (Определение подозрительных и сомнительных операций устанавливается в соответствии с действующим законодательством и Положением №2886).

10.2. Банк в следующих случаях без предварительного уведомления Заёмщика приостанавливает осуществление операций (при этом операции по зачислению денежных средств на счет являются исключением) и (или) блокирует денежные средства или иное имущество:

- если один из участников операции включен в перечень лиц, участвующих или подозреваемых в участии в террористической деятельности или распространении оружия массового уничтожения;
- если один из участников операции действует от имени лица, включенного в перечень, или на основании его поручения;
- если денежные средства или иное имущество, используемые при осуществлении операции, полностью или частично принадлежат лицу, включенному в перечень, либо находятся под его контролем;
- если юридическое лицо, являющееся участником операции, находится в собственности или под контролем лица, включенного в перечень;
- если денежные средства или иное имущество прямо или косвенно принадлежат лицам, включенным в перечень, либо получены из связанных с ними источников.

10.3. Заёмщик обязан по требованию Банка представить свои идентификационные данные, сведения о конечном бенефициарном собственнике (UBO), а также документы,

mazmunini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart.

Qarz oluvchi taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi, to'liqligi va dolzarbligi uchun javobgar hisoblanadi hamda ular o'zgargan taqdirda darhol Bankni xabardor qilishi lozim.

10.4. Bank Qarz oluvchini identifikatsiya qilish (KYC), qayta identifikatsiya qilish (re-KYC), shuningdek, zarur hollarda kengaytirilgan tekshiruv (EDD) o'tkazish huquqiga ega.

Bank Qarz oluvchi va uning benefitsiarlarini milliy va xalqaro ro'yxatlar bo'yicha tekshiradi hamda muntazam ravishda qayta skrining (re-screening) amalga oshiradi.

10.5. Bank Qarz oluvchidan operatsiyalar, mablag'lar kelib chiqish manbalari, kontragentlar va boshqa zarur ma'lumotlar yuzasidan qo'shimcha hujjat va axborotlarni talab qilish huquqiga ega.

Qarz oluvchi tomonidan talab etilgan ma'lumotlar belgilangan muddatda taqdim etilmagan taqdirda, Bank operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish, xizmat ko'rsatishni to'xtatish yoki cheklash huquqiga ega.

10.6. Bank shubhali operatsiyalar to'g'risida vakolatli organlarga qonunchilikda belgilangan tartibda axborot taqdim etadi hamda bunday axborot berilganligi to'g'risida Qarz oluvchini xabardor qilmaslik huquqiga ega.

10.7. Bank Qarz oluvchilarga xizmat ko'rsatishda riskga asoslangan yondashuvni qo'llaydi hamda yuqori darajadagi xavf aniqlangan hollarda operatsiyalarni amalga oshirishni cheklash yoki rad etish huquqiga ega.

Yuqori xavfli Qarz oluvchiga nisbatan kengaytirilgan nazorat choralari qo'llash va qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish huquqiga ega.

10.8. Quyidagi hollarda Bank shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli:

- Qarz oluvchi tomonidan AML/CFT talablariga rioya etilmagan taqdirda;
- noto'g'ri, to'liq bo'lmagan yoki yolg'on ma'lumotlar taqdim etilganda;
- Qarz oluvchi Bank bilan hamkorlik qilishdan bosh tortganda;
- yuqori darajadagi AML/CFT riski aniqlanganda.

подтверждающие экономическое содержание операций.

Заёмщик несет ответственность за правильность, полноту и актуальность представленных сведений, а в случае их изменения обязан незамедлительно уведомить Банк.

10.4. Банк вправе осуществлять идентификацию заёмщика (KYC), повторную идентификацию (re-KYC), а также, при необходимости, проводить расширенную проверку (EDD).

Банк проверяет заёмщика и его бенефициаров по национальным и международным перечням, а также на регулярной основе осуществляет повторный скрининг (re-screening).

10.5. Банк вправе требовать от заёмщика дополнительные документы и информацию по операциям, источникам происхождения денежных средств, контрагентам и иные необходимые сведения.

В случае непредставления Заёмщиком затребованных сведений в установленный срок Банк вправе отказать в осуществлении операций, приостановить или ограничить обслуживание.

10.6. Банк в установленном законодательством порядке представляет информацию о подозрительных операциях в уполномоченные органы, а также вправе не уведомлять Заёмщика о факте представления такой информации.

10.7. Банк при обслуживании заёмщиков применяет риск-ориентированный подход, а в случаях выявления высокого уровня риска вправе ограничить или отказать в осуществлении операций.

Банк вправе применять в отношении заёмщиков высокого риска меры расширенного контроля и проводить дополнительные проверки.

10.8. В следующих случаях Банк вправе в одностороннем порядке расторгнуть договор:

- при несоблюдении Заёмщиком требований AML/CFT;
- при представлении неверных, неполных или ложных сведений;
- при отказе Заёмщика от сотрудничества с Банком;
- при выявлении высокого уровня риска AML/CFT.

11. Boshqa shartlar	11. Прочие условия
11.1. Kredit mobil ilova orqali 24/7 rejimida ajratiladi. 11.2. Qarz oluvchi, o'ziga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan shaxsga doir ma'lumotlarni Bank tomonidan uchinchi shaxslarga berilishiga yoki ularning qayta ishlanishiga shartsiz o'z roziligini beradi. Mazkur shartnomaga nisbatan Bankning ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan qoidalar qo'llaniladi va u qarz oluvchi uchun majburiy yuridik kuchga ega bo'ladi. 11.3. Mazkur shartnomaning bir yoki bir nechta sharti qonunga yoki sud qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotsa, shartnomaning boshqa shartlari bekor bo'lishiga asos bo'lmaydi. 11.4. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan boshqa holatlar bo'yicha tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan hal etadilar. 11.5. Ushbu oferta o'zbek va rus tillarida tuzilgan bo'lib, ular o'rtasida nomuvofiqliklar kelib chiqqan holatlarda o'zbek tilidagi matnga ustunlik beriladi.	11.1. Kredit предоставляется 24/7 через мобильное приложение. 11.2. Заемщик дает свое безусловное согласие на предоставление информации, касающейся его или позволяющей его идентификацию, третьим лицам или на ее обработку Банком К настоящему договору применяются правила внутренних нормативных актов Банка, и он имеет обязательную юридическую силу для заемщика. 11.3. Если одно или несколько условий настоящего договора утрачивают силу в соответствии с законом или решением суда, это не является основанием прекращения других условий договора. 11.4. При других обстоятельствах, не предусмотренных настоящим договором, стороны будут решать споры в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан. 11.5. Настоящая oferta составлена на узбекском и русском языках, при возникновении между ними несоответствий предпочтение отдается тексту на узбекском языке.

Oferta beruvchining yuridik manzili: “O‘zsanoatqurilishbank” ATB	Юридические адреса: АКБ «Узпромстройбанк»
Manzil: Toshkent sh., Yunusobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 3 uy. MFO: 00440; STIR: 200 833 707 Telefon: (99871) 200-43-43, 1180 Veb sahifa: www.sqb.uz	Адрес: г. Ташкент, Юнусададский район, ул. Шахрисабз, 3 МФО: 00440; ИНН: 200 833 707 Телефон: (99871) 200-43-43, 1180 Веб адрес: www.sqb.uz

Mijoz FIO pasport ma'lumotlari
Mikroqarz turi, foizi, muddati

QR code